



## TURLI XIL MAVJUDOTLAR O'RTASIDAGI MUNOSABATNI IFODALOVCHI TIL BELGISI

Beknazarova Iroda Yormamatovna

Samarqand davlat chet tillar instituti,

E-mail: irodabeknazarova77@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tilshunoslikning asosiy belgilaridan shakl va ma'no tafsilotlari va shuningdek so'zning ma'nosini ushbu so'z qo'llanilishi mumkin bo'lgan.

**Kalit so'zlar:** ma'no, shakl, komponent, g'oya, belgi, muqobil, tamoyil, lisoniy, fikr xususuyati, ob'yekt, denotat, denotatum, lingvistik belgi real dunyo ob'ektlari haqida so'z boradi.

**Annotation.** This article discusses the main features of linguistics, the details of form and meaning, as well as the meaning of a word in terms of real-world objects to which the word may be applied.

**Key words:** meaning, form, component, idea, sign, alternative, principle, linguistic, thought feature, object, denote, denotatum, linguistic sign.

Til haqidagi zamонавија tilshunoslikning deyarli barcha maktablarida mavjud bo'lgan asosiy g'oyalardan biri de Sossyurning lingvistik belgini ikki komponentdan—*signifiant* (form) ahamiyatlari, muhim (shakl) va *signifié* (meaning) ishora (ma'no) dan iborat deb tavsiflashidir. Tilning ko'pgina jihatlari diqqat markazida belgining shakl-komponentiga (hech bo'limganda tahlilning boshlang'ich nuqtasi sifatida shakllangan holda) qaralsada, ma'noga qayta-qayta murojaat qilingan. Jumladan, fonema "turli ma'noli shakllarni farqlash" vazifasini bajaradigan lisoniy birlik, morfema esa "ma'no olib borish uchun xizmat qiluvchi birlik" deb ta'riflangan [2]. Shunisi e'tiborga loyiqliki, u ko'pchilik o'quvchilarning e'tiboridan chetda qolgan bo'lsa ham kontekstlarda atama ma'nosining aniq ta'rifi yoki tavsifi berilmagan. Shunday qilib, nutqning ingliz va nemis tillarida boshqacha ma'noga ega ekanligi yoki Jeyn Osten davridan beri yoqimli (nice) so'zining ma'nosi o'zgarganligi haqidagi bayonotlar oddiy bir holat. Xuddi shu tarzda, ingliz tilida so'zlashuvchilar (tilshunoslik bo'yicha ma'lumotga ega bo'limganlar) so'zlarning ma'nolari haqida, masalan, *yaxshi* (good) *yomon* (bad) ning teskarisi ekanligini yaxshi biladilar. Mahalliy suxandonlar juda ko'p holatlarda bolalarga so'zlarning ma'nosini tasvirlab bera oladilar hattoki so'zning ma'nosi haqida bahslashadilar, masalan bahs, kelishmovchilik (disagreement) *demokratiya* (democracy) yoki *erkinlik* (freedom) kabi so'zlar aslida nimani anglatishi yoki uchunchi muqobil degan narsa bo'lishi mumkin, *uchinch muqobil* yoki *alternativning* ma'nosi "ikki imkoniyatdan biri" ekanligi haqida bahs bo'lishi mumkin [3]. Shunday qilib, so'z so'zdan farqli o'laroq, so'z ma'nosining kundalik tilda qo'llanilishi tilshunoslikdagi qo'llanilishidan deyarli farq qilmaydi.



Ko‘pchilik tilshunoslarning yuqoridagi ma’nodan foydalanishga e’tiroz bildirmasligi, barcha tilshunoslarning aslida ma’no nima ekanligi haqida bir xil fikrlarga ega bo‘lishlarini anglatmaydi. Fanda ba’zan shunday vaziyatga duch keladiki, bu hodisaning aslida nima ekanligini aytishdan ko‘ra, u yoki bu hodisa haqida gapirish yoki uning ayrim xususiyatlarini tavsiflash osonroqdir. Shunday qilib, fiziklar, masalan, proton va neytronlar tashkil topgan eng mayda zarralarning ma’lum sifatlarini mukammal darajada o‘lchashga va proton va neytronlar tashkil topgan eng mayda zarralarning bir nechta turlari (ular qizil, yashil va hokazo deb belgilashgan) o‘rtasidagi farqni aniqlay olishdi, proton va neytronlar tashkil topgan eng mayda zarralarning (quarks) aniq tabiatini hali to‘liq tushunmasdan, biz ma’no deb ataydigan hodisaning xarakterini tasvirlashdan ko‘ra, tildagi ma’no haqida hisobotlar berish osonroq. Natijada, *ma’no* xarakteriga nisbatan turli xil yondashuvlar qo‘llanildi, ularni quyidagi uchta sarlavha ostida birlashtirish mumkin [1]:

- ma’no sof lisoniy hodisa sifatida - lisoniy belgining xossasi bo‘lib, uni Sossurcha va Sossurdan keyingi trukturalizm tamoyillariga ko‘ra, belgining til tizimidagi o‘rni va unga munosabati asosida aniqlash mumkin bo‘lgan boshqa belgilar;
- psixologik hodisa sifatidagi *ma’no*, ya’ni so‘zlovchilar ma’lum bir lingvistik shakl bilan bog‘laydigan g‘oyalari yoki tushunchalar;
- qo‘llanish hodisasi sifatidagi ma’no, ya’ni so‘z shaklining nutqiy jamoa so‘zlovchilari tomonidan aslida qanday qo‘llanishi asosida aniqlanishi mumkin bo‘lgan xususiyat.

*Ma’noning aniq ta’rifiga erishish nisbatan qiyin bo‘lishi mumkin bo‘lsada, hech bo‘limganda qaysi *ma’no* emasligi nisbatan aniq.* Bugungi kunda so‘zning *ma’nosini* ushbu so‘z qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan real borliq ob’ektlari, odamlari, g‘oyalari va boshqalar bilan tenglashtirmaslik kerakligi qabul qilinadi. Aslida, Amerika strukturalizmining eng nufuzli olimi Leonard Blumfeld tomonidan qo‘llanilgan yondashuvning eng katta kamchilik tomonlaridan biri sifatida ko‘rish mumkin, u bu farqni kerakli darajada qat’iy ravishda qilmagan. U so‘zning *ma’nosini* tavsiflash tasvirlangan ob’yekt (masalan, uning kimyoviy tarkibi) haqidagi ilmiy bilimlardan foydalilanadi, deb o‘yaydi. Ko‘pgina ob’ektlar uchun bunday bilimlar mavjud emasligi sababli, so‘zlar yordamida tasvirlash mumkin bo‘lganligi sababli, *ma’noni* o‘rganish amerikalik strukturalistlar tomonidan ayniqsa qiyin deb hisoblangan. Aynan shuning uchun ham - manbalarda tez-tez ta’kidlanganidek, ular buni ahamiyatsiz deb bilishmagan - Amerika strukturalizmida *ma’noni* o‘rganishga e’tibor




berilmagan. Biroq, Palmer ta'kidlaganidek, bu dalilning mohiyati noto'g'riliqidadir [5].

Bloomfield tuzni natriy xlorid yoki NaCL sifatida aniq belgilash mumkinligini ta'kidladi. U shunday qilgani uni xatosi edi. Tuz, oddiy tilda, bizning stolimizda paydo bo'ladigan moddadir. Agar uning kimyoviy tarkibi aniq kimyogar ta'rifiga to'g'ri kelmasa, u tuz bo'lmaydi. Tuz, ko'pchiligidan uchun qalampir va xantalga singari bo'lib, ular hech qanday oddiy ilmiy tavsifga to'g'ri kelmaydi va kundalik ehtiyojimizda ham u bo'lmasligi kerak.

Blumfieldning ob'ekt haqidagi ilmiy bilimlari ma'noni tavsiflash uchun zarur ekanligi haqidagi tasnifiga qarshi yana bir dalil keltiriladigan bo'lsa, ko'pchilik til o'rganuvchilar ob'yekti haqidagi nazariy bilimlarga ega bo'lmasligi va tuzning NaCl ekanligini bilish shart emasligini e'tiborga olmaganligidir. Darhaqiqat, bolalar tuzning natriy xlorid ekanligini bilishdan ancha oldin tuz so'zidan to'liq mos foydalanishni o'zlashtirib olishlari ehtimoldan yiroq. Ob'ektlar va ularning xususiyatlari haqidagi bilimlar va so'z ma'nolari haqidagi bilimlar o'rtasidagi bog'liqlik qanday bo'lishidan qat'iy nazar ba'zi so'nggi psixolingvistik yondashuvlar ikkalasini bir-biridan butunlay mustaqil deb hisoblamaslik kerakligini ko'rsatadi ya'ni ob'ektlar haqidagi bilimlar (so'z nuqtai nazaridan aniq va ilmiy jihatdan to'g'ri kimyoviy, fizik xossalari va boshqalar) ushbu ob'yekti uchun ishlatalishi mumkin bo'lgan so'z ma'nosini o'zlashtirish uchun shart emas.

### 1-rasm

Turli xil mavjudotlar o'rtasidagi munosabatni tavsiflash uchun til belgisi ya'ni uning ikki tarkibiy qismi - shakl va ma'no bilan - bir tomonidan, qo'shimcha til dunyosi (u bizning tasavvurimizning mumkin bo'lgan dunyonи o'z ichiga oladi) boshqa tomonidan til belgilari qo'llanilishi mumkin. Shunday qilib, bir tomonidan, masalan orol so'zini oladigan bo'lsak, shakl va ma'nosidan iborat bo'lgan [ailənd] yoki /iceland/ so'zi mavjud bo'lib, uni "to'liq suv bilan o'ralgan yer"[6] deb ta'riflash mumkin. Boshqa bir tomonidan, ushbu ta'rif ingliz tilida so'zlashuvchilar bunday narsalar haqida gapiradigan bo'lsalar, ular orol so'zi bilan bo'lgan narsalarni nazarda tutishadi.





So‘z qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan dunyo ob'ektlari, odamlari va boshqalar to‘plami ko‘pincha uning *denotatumi* deb ataladi (1-rasm). Shunday qilib, orol so‘zining denotatumi dunyo haqiqatida yoki so‘zlovchilarning tasavvurida mavjud bo‘lgan barcha orollar to‘plami bilan bir xildir. Til belgisi bilan uning denotatumi o‘rtasidagi munosabat uning *denotatidir*.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. N.Turniyozov, B.Turniyozov, Sh.Turniyozova, Sh.Turniyozov. Lingvistik nazariyalar. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Samarqand: “SamDCHTI” nashriyoti, 2021. – 129 bet.
2. Турниёзов Б. Тенг компонентли мураккаб қурилмалар синтактик дериватсиясига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002, № 6.(61-63).
3. Compare the definitions of alternative in NSOED, LDOCE5 and OALD7.
4. Sampson, Geoffrey 1980 *Schools of Linguistics*. Stanford: Stanford University Press
5. Ullmann, Stephen 1972 *Semantics*. Oxford: Basil Blackwell.
6. Lyons, John 1977 *Semantics* I. Cambridge: Cambridge University Press.
7. *New Shorter Oxford English Dictionary on Historical Principles* 1993 edited by Lesley Brown. Oxford: Clarendon Press. [NSOED]
8. <http://www.henry-moore.org/pg/henrymoore-research/henry-moores-life/1898–1925> (last accessed 14 April 2010)